ALISHER NAVOIY IJODIDA SAXIYLIK UNSURLARINING NAMOYON BO‘LISHI

Ikromjon Habibjonov
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg’ona mintaqaviy filiali
Nursan Ildiri
Otaturk Universiteti

Annotatsiya: Inson uchun eng oliy xislatlardan biri bu - saxiylik bo‘lib, uni Hazrat Navoiy chuqur anglagan. Ushbu maqola orqali Alisher Navoiyning saxovat hamda saxiylik borasidagi fikrlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan,

Kalit so‘zlar: yaxshilik, saxovat, ne’mat, so‘z, karam, himmat, savob

THE ELEMENTS OF GENEROSITY ARE APPEARED IN ALISHER NAVOY’S CREATION

Ikromjon Habibjonov
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Art and Culture
Nursan Ildiri
Ataturk University

Abstract: One of the highest qualities for a person is generosity, which Hazrat Navoi deeply understood. Through this article, Alisher Navoi's thoughts on generosity and generosity are briefly discussed.

Keywords: goodness, generosity, blessing, word, cabbage, effort, merit

So‘z bu - munosabat demak. Tilimizdan chiqqan har bir kalom bizning o‘zgalarga va o‘zgalarning bizga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Hazrat Navoiy “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo‘q ondin”, deya so‘zni moddiyatdan ustun qo‘yganlari bejiz emas. So‘zlash individni odamga, ma'noli so‘zlash esa odamni insonga aylantiruvchi vosita. Ayniqsa, o‘zbek tili haqiqqatdan ham gavhardek qimmatbaho topilmalarga boy. Ammo ularni o‘z o‘rnida munosib qo‘llay olish ma’naviyatga bog‘liq. So‘z, til va ma'naviyat hamisha uzviy tushuncha ekanligi chin haqiqat. Hazrat Navoiyning quyidagi hikmatlari orqali ham buni yaqqol sezish mumkin.

Chin so‘z - mo‘tabar; yaxshi so‘z qisqa - muxtasar. Ko‘p so‘zlovchi - zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi - aqldan ozgan. Ayb izlovchi - aybli; kishi aybini gapiruvchi - o‘ziga yomonlik sog‘inuvchi. To‘g‘rilik bilan qarovchi - pokiza nazarli; kishilarning yaxshi tomonlarini ko‘ruvchi - to‘g‘ri nazarli. Kimning miyasida

(cc) BY

illat bo‘lsa - so‘zida mantiq bo‘lmaydi. Miyasi sog‘lom bo‘lsa, gap-so‘zi yoqimli va xatosiz bo‘ladi.

So‘zi hisobsiz - o‘zi hisobsiz. So‘zida parishonlik - o‘zida pushaymonlik. Agar so‘z go‘zallik ziynati bilan bezalmagan bo‘lsa - unga chinlik bezagi yetarlidir! Yolg‘onchining gapi qanchalik chiroyli bo‘lsa, shunchalik qabihdir. Chin so‘z qanchalik betakalluf bo‘lmasin, so‘zlovchi uchun taassuf yo‘qdir. Gul libosi yirtiq bo‘lsa ham ziyonsiz; sadaf xunuk bo‘lsa ham inju, uchun nuqsonsiz.

Yolg‘on so‘z she'rdan boshqa yerda nomaqbul va yolg‘onni aytuvchi aqlsizdir.

Yomon qiliqli odam - badfe'l; achchig‘i tez - bir baloga giriftor, bir ofatga mubtalo badbasharadir.

Bular qayon borsa - balodan qutilmas; har yerga qochsa ham ofatdan xalos bo‘lmas. Yomon qiliq g‘olib dushmandir va qahrli yovdir, yomon qiliqli kishi esa doim unga mag‘lub va vujudi undan majruh.

Shoir umrining so‘ngida “Mahbub ul-qulub” asari yaratilgan. Ushbu asarni Navoiy umri davomida to‘plagan hayotiy tajribalarining mahsuli, hayoti mahzani desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. “Mahbub ul-qulub” “Qalblarga sevimli bo‘lgan kitob” ma’nosini beradi. Uni “Dillarga oshno asar” yoki “Qalblarga yaqin kitob” deb tarjima qilish ham mumkin. Asar nega bunday nomlangan? “Mahbub ul-qulub” birinchi navbatda, kimlarga mo‘ljallab yozilgan? Bu asarni yozishga qanday ehtiyoj nor edi? Qalblar deganda, Navoiy kimlarni nazarda tutadi? Bular haqida bilish asarning qimmatini belgilashda muhim ahamyatga egadir.

Asarning muqaddimasida shoir chuqur bir xo‘rsinish bilan o‘z hayot yo‘lida uchragan qiyinchiliklarga nazar tashlaydi. - Qo‘lim kaltalik payti ko‘p xorlik va notavonliklarni ko‘rdim, - deydi Navoiy. Hayotning turli sinovlariga duch keldim, goh pastkash lainlar meni xo‘rladilar, goh razillar kamsitdilar. Har ko‘cha-yu ko‘yga kirdim, turli el va toifalarga qo‘shildim, yaxshilarning yaxshiliklaridan bahramand bo‘ldim, yomonlarning fitnalaridan qalbim jarohatlandi, pastkashlarning qiliqlaridan ko‘nglim yaralandi, olijanob insonlarning munosabati ko‘nglimga malham bo‘ldi. Taqdir kulib boqqanda amir va hokim bo‘ldim. Unda adolat bilan ish ko‘rdim, ta’zim va saxovatni kanda qilmadim, qo‘limdan kelgancha yaxshilik qildim. Men yaxshi-yomonning farqiga bordim, juda ko‘p uqubat va ko‘rguliklar natijasida kata hayotiy tajriba to‘pladim.

Gohe topdim falakdin notavonlig‘,
Gohe ko‘rdum zamondin komronlig‘.
Base issig‘, sovux ko‘rdum zamonda,
Base achchig‘, chuchuk tottim jahonda.

Ammo hayotning bunday achchiq, og‘ir sinovlarga hali hanuz duch kelmagan insonlar ko‘p, - deydi hazrat. Ular umr yo‘llarida qoqilmasliklari, yaxshi-yomonni

(cc) BY

farqlay olishlari uchun ushbu kitobni yozdim, ularni hushyor torttirish va ogoh etishni vojib deb bildim.

Kitob har bir inson egallashi lozim bo‘lgango‘zal xulq, yuksak ma’naviyat mezonlari haqida artoflicha ma’lumot berdi.

Ko‘rinib turibdiki, bu asar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan insonlarga, nazarimda, ko‘proq yoshlarga atab yozilgan. Toki, - deydi Navoiy, - ular jamiyat ichidagi barcha toifa va tabaqalarda uchraydigan fazilat va qusurlardan ogoh bo‘lsinlar, kimga ergashish masalasida adashmasinlar.

Asarning kompozitsion qurilishi o‘ziga xos. Uning uch qismga bo‘linishi bejiz emas. Navoiyning maqsadi bo‘lgan pand-nasihat va tanbehlar turkumi uchinchi qismda keltirilgan. Birinchi va ikkinchi qismda mulohazalarni keltirishdan maqsad nima edi? Navoiy pand-nasihatdan oldin o‘quvchiga jamiyat haqida, uni asrab turuvchi ma’naviy ustunlar haqida bilim va tushuncha berib o‘tishni zarur deb biladi. Shu bois asarni dabdurustdan quruq nasihat qilishdan boshlashni ma’qul ko‘rmaydi. Dastlab u o‘quvchini muayyan tayyorgarlikdan o‘tkazgan.

Birinchi qismda kishilik jamiyatini tashkil etgan barcha tabaqa va toifalarga qirq faslda batafsil ta’rif beriladi. Ularning fazilat va kamchiliklari ochib tashlanadi. Bu o‘quvchi jamiyat haqida yaxlit tasavvur uyg‘otishiga qaratilgan. Birinchi qismda tijorat ahli, munajjimlar, dehqonlar, navkarlar, shayxlar, darvishlar, mutribu mug‘anniylar, hofizlar, shoirlar, faqihlardan tortib, vaziru podishohgacha har birining aslida qanday fazilatlarga ega bo‘lishlari talab etilishi va o‘sha davrda ularning tabiatlari zohir bo‘layotgan qusurlar tilga olinadi.

Masalan, tabiblar Iso payg‘ambarga o‘xshatiladi. Iso chiqqan jonni duo bilan inson tanasiga qaytargan bo‘lsa, tabiblar chiqayotgan jonga jonga davo bilan tanani tark etishga monelik qiladi, - deydi. - Tabib o‘z fanida nihoyatda mohir, kasbiga sadoqatli, bemorga marhamatli va shafqatli bo‘lishi lozim. Bunday tabibning yuz bemorga mahbub, so‘zi bemor joniga marg‘ub, ya’ni yoqimlidir. Qadamlari xastalarga shifo bo‘ladi. Ammo o‘z kasbini yaxshi egallamagan, yomon fe’lli, beparvo va dag‘al muomalali bo‘lsa, bemorni davolagani bilan boshqa tomondan ko‘ngilni jarohatlaydi. Agar tabib o‘qimishli, ilmli bo‘lmasa, u jallod shogirdidir. Jallod tig‘ bilan o‘ldirsa, u davo o‘rniga davolaydi.

Jamiyatning faol a’zolariga aylanib borayotgan yoshlar o‘z jamiyatlarining kamoloti uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lmoqliklari kerak? Ushbu kishilik jamiyatda ezgulik va to‘liq saodatmanlik hukm surishi uchun jamiyat a’zolari qanday tamoyillarga asoslanmoqlari lozim? Buni Navoiy asarning ikkinchi qismida 10 ta bob doirasida tahsinga sazovor fe’l-atvor, yuksak xulqqa erishish tamoyillari orqali ochib beradi. Bular tovba, xuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze, va adib, zikr, rizo, tavajjuh va ishqdir. Mana shu fazilatlar inson qallbini tug‘yon va isyondan saqlaydi., va huzur

(cc) BY

va halovat baxsh etadi, xulqni go‘zal qiladi, bardoshni oshiradi. Irodasining baquvvat bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Masalan, zuhdga bag‘ishlangan bobga nazar tashlaylik. Zuhd - bu diniy istilohdan tarkidunyochilik, uzlatga chekinish demakdir. Navoiy esa zahdni shunday tushintiradi: Zuhd - bo‘lar-bo‘lmas orzulardan kechmoq, molu mansab ketidan quvmaslik, nomahram yuzdan ko‘zni asrashlik va yomon so‘zlardan tilni tiymoqliq.

Kimki bu maqomni qo‘lga kiritsa, uning ko‘nglida bir nur paydo bo‘ladiva ko‘nglini hamisha shod etadi.

Navoiy har bir inson qalban bo‘lishini, zuhd maqomini egallashini orzu qiladi. Bunday zuhd insonning ko‘ngil havovati, qalb osudaligini ta’minlaydi.

Hazrat Navoiy nafaqat ulug‘ mutafakkir, ulug‘ shoir, balki o‘z xalqi, millati taqdiriga befarq bo‘lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o‘z umri intihosida ham millat va xalq dardi nilan yashadi. “Mahbub ul-qulub”asarida jamiyat bilan bog‘liq orzu-umidlarini ifodaladi. Unda jamiyat hayotini yuksaltirish, uni togri yo‘lga solish va shaxs ma’naviyatini tarbiyalash kabi o‘zining so‘nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi”.

Saxovat insoniyat bog‘ining serhosil daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi, balki u sermavj dengizining bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam - yomg‘irsiz bahor bulutiga va hidi yoq mushki anbarga o‘xshaydi.

Mevasiz daraxt ham biru, o‘tin ham bir. Yong‘insiz bulut ham biru tutun gam bir. Saxovatsiz odamdan gavharsiz sadafning farqi yo‘q. dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqaning farqi yo‘q. Baxil jannatga kirmas, hatto, qurayshlarning sayyidi bo‘lsa ham va saxiy do‘zaxga kirmas, qora habash bo‘lsa ham. Saxiy go‘yo bulutdir, uning ishi xirmon-xirmon don, balki xazina boyligidir. Baxil esa go‘yo chumolidir, don-dun terib, tashigani-tashigan.

Saxovat faqat himmat ahlida bo‘ladi va bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xosdir. Odam bir badan bo‘lsa, himmat uning jonidir. Himmatlilardan olam ahli yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi - er sonida emas. Jonsiz badanni hechkim tirik demas. Oliy himmat odam - balandparvoz lochin. Behimmat esa sichqon ovlovchi kalaxtdir. Shunqorning maskani shohning bilagidir. Kalaxtning joyi o‘limtikning sassiq badani va suyagidir. Arslonning maqsadi ov qilib och yirtqichlarni to‘yg‘izmoq, sichqonning harakati esa don o‘g‘irlab, tugun axtarmoq. Himmat egasi qashshoq bo‘lsa ham tubanlik qilmaydi. Himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng kelmas. Chinor daraxti mevasiz bo‘lsa ham uning yuksakligiga nuqson yetmaydi. Yer ostida yashirin xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi.

Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir, ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir.

(cc) BY

Isrof qilish saxovat emas, o‘rinsiz sovurishni aqalli kishilar saxiylik demaydilar. Halol molni kuydirganni devona deydilar, yorug‘ joyda sham yoqqani aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq - o‘zini o‘zi ko‘-z-ko‘z qilmoq va bu bilan o‘zini saxiy deb atash behayolik. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson qilsa, u - pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berish ham saxovatdan emas, qistov natijasida bergandan ko‘ra bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikkiga bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni axiy (oshna, birodar, do‘st) deb bilgin.

Hunarlarni yaxshilarni topmoq yedirmoqdir va ayblarini yopmoq esa kiydirmoqdir.

Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo‘z to‘n - saxovat, bemahal berilgan zarbof chopon - yaramaslik. Taomim uvol bo‘lmasin, desang yedir, libosim eskirmasin, desang - kiydir.

Saxovat qilish yo‘lini shu aytilgan gaplardan angla, ammo oliyjanoblik va mardlik rasmlaribundan bo‘lakchadir.

Karam - bir jafokashning og‘ir yukini ko‘tarmoq va yukni mashaqqatidan uni qutqarmoq. Karam - birovning tikanli yukini ko‘tarmoq va tikan sanchilishidan guldek ochilmoq va shu qilgan ishi haqida qayta o‘g‘iz ochmaslik. Hech qachon minnat qilmaslik va aslo nyuziga solmaslikdir. Karam sifati ”Akram ul-akramin”, ya’ni karamlilarning karamlisi Tangri taolodir. Sohibi karam kishi Haqning bu sifatiga tobe kishidir.

Hozirgi paytda karam sabzavoti sabzavotfurushning do‘konidan boshqa yerda topilmaydi va mehr guli(quyosh) osmon gulshanidan o‘zga yerda ochilmaydi. Karam inson tabiatida noyob va balki yo‘qdir, shu boisdan karam ahlini ko‘z ilg‘amaydi, hatto topolmaydi.

Karamning “k” harfini go‘yo “kimyo” so‘zining boshlanishidan olibdurlar va “r” harfini “simurg‘” so‘zi orasidan va “mim” harfini xo‘blar (yaxshilar) og‘zidan tutibdurlar. Bu javharni olam ahlidan tilash, quyoshni zarradan tilamak bilan barobardur, eng kichik Suho yulduzidan osmonni tilash bilan barobardur.

Kamyoblikda muruvvat karamning urug‘-aymog‘idir. Balki egizak tug‘ishganidir. Bularning ikkisi ham odamiyligi yo‘q xalqning bevafoligidan xabardor bo‘lgach, bulardan qochib, yo‘qlik dunyosiga safar qilibdurlar. Sohibi karam u go‘zal , qimmatbaho boylikdan ayirishini to‘g‘ri ish deb bilmaydi.

Va muruvvat sohibi u sharif xulqidan ayrilmaydi.

Karam bilan muruvvat ikkalasi qayerda bo‘lsa ham Tangrining panohida bo‘lsin, izzat va hurmat makonidan o‘rin olsin”.

Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va

(cc) BY

yozuvchilar inson ruhining muhandislaridir. Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi[1].

Inson kamoloti yo‘lida hadislarning alohida o‘rni bo‘lib, ularni o‘qib-o‘rganib kelajak avlodga targ‘ib qilinsa, farzand tarbiyasiga kirishgan har qanday ota-ona yoxud ustoz o‘zi ko‘zlagan maqsadga erishishi osonroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Karimov, “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008.

2. SH.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O’zbekiston, 2017.

3. A.Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, G‘afur G‘ulom nashriyoti, Toshkent, 2021-yil

4. H.Yoqubov, “Navoiy va o‘zbek adabiyoti” maqola. 1968-yil.

[1] Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008.

(cc) BY